

MUSTAQILLIK YILLARIDA MAHALLA INSTITUTI

Suyunov Akmal

Surxondaryo viloyati Termiz Davlat Universiteti

Tarix fakulteti 1-kurs magistranti

Annontatsiya: Mustaqillikning ilk yillaridanoq davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mahalla institutining huquqiy asoslarini yaratish, ularni zamon talablariga mos holda takomillashtirib borish, jamiyatimiz siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotining ajralmas bir qismi sifatida ushbu noyob tuzilma maqomini mustahkamlashga katta e'tibor qaratib kelinmoqda.

Kalit so'z: istiqomat, tuzilma, **asrab-avaylash**, Anjuman

Avvalo, milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yildi, **ularning maqomini belgilash**, vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

Birgina so'nggi 3 yilda yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi hamda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylovi to'g'risida"gi qonunlar hamda sohaga oid 16 ta nizom hayotga tatbiq etildi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha O'quv kurslari hamda "Mahalla" ma'rifiy teleradiokanalni faoliyati yo'lga qo'yildi.

Natijada bugun mahalla aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga, "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilining amaliy ifodasiga hamda keng xalq ommasini davlat, hokimiyat idoralari bilan bog'lab turuvchi mustahkam ko'prikkaytirishga qaytarishga qaratilgan qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ishlari ham tizimli ravishda amalga oshirilayotir.

Umuman, hozirgi paytda yurtimizda mavjud 10 mingga yaqin fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan 30 dan ziyod vazifalar muvaffaqiyatlari bajarilayapti. Milliy va ma'naviy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarimizni **asrab-avaylash**, yoshlarni barkamol insonlar sifatida kamolga yetkazish, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan asosda qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin-qizlar va yoshlar bandligiga ko'maklashish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hamda hududlarni obodonlashtirish shular jumlasidandir.

Mahallalarda **yarashtirish**, ma'rifikat va ma'naviyat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar bilan ishslash, voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari, tadbirkorlik faoliyati hamda oilaviy **biznesni rivojlantirish**, ekologiya, tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, jamoatchilik nazorati hamda iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha jamoatchilik komissiyalari tashkil etilishi fuqarolar yig'inlari faoliyatida yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 1992 yilda "Mahalla" xayriya jamoat fondining tashkil etilishi fuqarolar yig'inlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mahallalarda milliy qadriyatlarni e'zozlash va targ'ib qilish, madaniy-ma'rifiy **ishlarni kuchaytirish**, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamin qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynayotgani qayd etildi. Xususan, ayni chog'da respublikamiz bo'yicha 9532 ta fuqarolar yig'ini zamonaviy kompyuter jamlamasi, 7746 tasi mebel jihozlari bilan to'liq ta'minlangan. So'nggi 3 yil davomida 40 ga yaqin qo'llanma va adabiyotlar tayyorlanib, fuqarolar yig'inlariga yetkazib berildi. Bu esa ular faoliyati yanada samarali bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Shu yilning birinchi yarmida mahallalarda 50 mingdan ortiq ma'rifiy-madaniy tadbirlar tashkil etilishida Fond hududiy tuzilmalari tomonidan uslubiy-amaliy yordamlar ko'rsatildi. Fuqarolar yig'inlarining sohaga oid qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashdagi faoliyatini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini keng ommalashtirishda har yili an'anaviy tarzda tashkil etilayotgan "Eng namunali fuqarolarning

o'zini o'zi boshqarish organlari”, “Fuqarolar yig'inlarining eng namunali diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi” ko'rik-tanlovlari ham ayni muddao bo'layapti.

Mahallalarda istiqomat qilayotgan ota-onalarning yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq huquqiy, ma'naviy-axloqiy, fiziologik bilimlarini oshirishga ko'maklashish maqsadida 9100 ga yaqin fuqarolar yig'inlari qoshida “Ota-onalar universitetlari” faoliyati yo'lga qo'yildi. 2015 yilning birinchi yarmida ushbu jamoatchilik tuzilmalari tomonidan 56 mingdan ortiq tadbirdilar o'tkazildi. Fuqarolar yig'inlarining nodavlat notijorat tashkilotlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan ijtimoiy sheriklik munosabatlari ham tobora rivojlanmoqda. **Jumladan**, “Oila — mahalla — ta'lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar doirasida joriy yilning o'tgan davrida mahallalarda 58 mingdan ortiq tadbirdilar tashkil etildi.

Mahallalarda bolalar sportini rivojlantirish maqsadida har yili hamkor tashkilotlar ko'magida o'tkazilayotgan “Futbolimiz kelajagi”, “Mahallamiz pahlavonlari”, “Otam, onam va men — sportchilar oilasi”, “Biz aql-idrokli oilalarmiz” kabi musobaqalar ahamiyati salmoqli bo'layotganiga ham e'tibor qaratildi. Yaqinda o'tkazilgan “Futbolimiz kelajagi” respublika turnirida 1 million 260 mingga yaqin bolalar va o'smirlar qatnashgani ham ana shundan dalolatdir. Bu borada Fond va uning hududiy tuzilmalari tomonidan mahallalarda bolalar maydonchalarini qurish va ularning faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida ko'rilibayotgan chora-tadbirlar muhim omil bo'lmoqda. Masalan, so'nggi yillarda Fond hisobidan 1618 ta bolalar maydonchasi qayta ta'mirlandi, 701 tasi namunaviy loyiha asosida qurilib, foydalanishga topshirildi.

Aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va bandligini ta'minlash borasidagi ishlar ham e'tiborlidir. Birgina oxirgi 5 yilda Fond hisobidan 16 mingdan ortiq oilalarga moddiy yordamlar ko'rsatildi, 27 ming nafarga yaqin fuqarolarga kiyim-kechak berildi, 2300 dan ortiq oilalar uy-joylarini ta'mirlashga, 600 nafarga yaqin nogiron va boquvchisini yo'qotgan talabalarga o'quv-shartnoma pulini to'lashga yordam ko'rsatildi.

Bu boradagi xayrli ishlar Keksalarni e'zozlash yilida ham izchil davom ettirilmoqda. Davlat dasturi doirasida Fond hisobidan 520 nafar urush va mehnat faxriysiga televizorlar, 6 ming nafarga yaqin keksalarga kiyim-kechak olib berildi, 1200 nafarga yaqin yolg'iz keksalarning uy-joylarini ta'mirlash uchun moddiy yordamlar ajratildi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “sportini rivojlantirish” 2021
2. “biznesni rivojlantirish” 2007
3. “Milliy va ma'naviy qadriyat” 1996